



THE SOCIAL AND ETHICAL CRITERION OF JUSTICE AND LOVE IN BABUR'S PHILOSOPHICAL VIEWS

Behzod Khamdamov

Lecturer at Bukhara State Medical Institute
Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: justice, love, axiology, socio-ethical criteria, humanism, spiritual development, moral ideal, personal growth, social stability, spiritual values.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article aims to identify the fundamental axiological criteria that regulate the relationship between the individual and society in the philosophical legacy of Babur. Justice is interpreted as the moral foundation of governance and a fundamental ethical principle ensuring social stability. At the same time, the phenomenon of love is examined as a socio-ethical force that shapes a person's inner development, spiritual maturity, and moral elevation within Babur's worldview. The study subjects the poetic and educational dimensions of Babur's works to philosophical analysis, revealing their humanistic ideas, an attitude that regards the human being as the highest value, and the mechanisms through which moral and spiritual ideals are formed. The author considers justice and love as the two essential axiological pillars of Babur's philosophy and provides a philosophical justification for their influence on societal progress, the development of political consciousness, and the culture of humanism.

BOBUR FALSAFIY QARASHLARIDA ADOLAT VA MUHABBATNING IJTIMOYIY- AXLOQIY MEZONI

Behzod Xamdamov

Buxoro davlat tibbiyot instituti o'qituvchisi
Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Adolat, muhabbat, **Annotatsiya:** Ushbu maqola Bobur aksiologiya. ijtimoiy-axloqiy mezonlar, tafakkurining inson va jamiyat munosabatlarini

insonparvarlik, ma'naviy kamolot, axloqiy ideal, shaxs kamoloti, jamiyat barqarorligi, ma'naviy qadriyatlar.

tartibga soluvchi asosiy aksiologik mezonlarini aniqlashga qaratilgan. Maqolada adolat davlat boshqaruvining ma'naviy poydevori, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi fundamental axloqiy tamoyil sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, muhabbat fenomeni Bobur dunyoqarashida insonning ichki kamolotini, ruhiy yetukligini va ma'naviy yuksakligini belgilab beruvchi ijtimoiy-axloqiy kuch sifatida yoritiladi. Tadqiqotda Bobur asarlarining poetik va ma'rifiy qirralari falsafiy tahlil obyektiga aylanib, ulardagi gumanistik g'oyalar, inson qadriga asoslangan munosabat, ma'naviy-axloqiy ideallarning shakllanish mexanizmi ochib beriladi. Muallif adolat va muhabbatni Bobur falsafasining ikki ustuvor aksiologik tayanchi sifatida ko'rib, ularning jamiyat taraqqiyoti, siyosiy ongning rivoji va insonparvarlik madaniyatiga ta'sirini falsafiy ravishda asoslaydi.

СОЦИАЛЬНО-ПРАВСТВЕННЫЙ КРИТЕРИЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ И ЛЮБВИ В ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДАХ БАБУРА

Бехзод Хамдамов

Преподаватель

Бухарского государственного медицинского института

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: справедливость, любовь, аксиология, социально-нравственные критерии, гуманизм, духовное совершенствование, нравственный идеал, развитие личности, общественная стабильность, духовные ценности.

Аннотация: Данная статья посвящена выявлению основных аксиологических критериев, регулирующих отношения человека и общества в философском наследии Бабура. В работе справедливость рассматривается как духовный фундамент государственного управления и основной нравственный принцип, обеспечивающий общественную стабильность. Одновременно феномен любви интерпретируется как социально-нравственная сила, определяющая внутреннее совершенствование человека, его духовную зрелость и моральное возвышение в мировоззрении Бабура. В исследовании поэтические и просветительские аспекты произведений Бабура становятся объектом философского анализа; раскрываются гуманистические идеи, отношение к человеку как к высшей ценности, а также механизм формирования

морально-духовных идеалов. Автор рассматривает справедливость и любовь как два устойчивых аксиологических опорных понятия бабурской философии и философски обосновывает их влияние на развитие общества, формирование политического сознания и культуру гуманизма.

Kirish. Zahiriddin Muhammad Boburning falsafiy merosi Sharq ma'naviy tafakkurida adolat, muhabbat, insonparvarlik va ma'naviy mas'uliyat masalalarini o'zida mujassam etgan o'ziga xos tizim sifatida namoyon bo'ladi. Uning dunyoqarashi faqat tarixiy shaxsning siyosiy tajribasi yoki badiiy mahorati bilan cheklanib qolmay, balki insonning axloqiy kamoloti, jamiyat barqarorligi va ma'naviy tartibning mazmun-mohiyatini aniqlovchi qonuniyatlar ko'lamida shakllanadi. Bobur uchun adolat – davlat boshqaruvining asosiy ustuni, muhabbat esa, inson ongidagi ma'naviy uyg'unlikni ta'minlovchi ichki mezon sifatida talqin etiladi. Shu boisdan uning qarashlarini faqat tarixiy-adabiy meros doirasida emas, balki ijtimoiy-falsafiy tahlil mezonlari asosida o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Boburning siyosiy-ijtimoiy tafakkuri, avvalo, inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan axloqiy yo'nalish bilan ajralib turadi. U adolatni podshohlikning ma'naviy poydevori sifatida belgilab, hukmdorning qudrati zo'ravonlikda emas, balki adolatli munosabatni qaror toptirishda ekanini ta'kidlaydi. Muhabbat esa, uning falsafasida keng ma'nodagi ijtimoiy birlashtiruvchi kuch sifatida, insonni nafaqat oila va yurtga, balki haqiqat va ezgulikka sadoqat bilan bog'lovchi ma'naviy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, Bobur ta'limotida adolat va muhabbat bir-birini to'ldiruvchi, inson ongi va jamiyat tartibida mutanosiblik paydo qiluvchi ikki asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi global axborot oqimlari, ijtimoiy dinamikaning tezkor o'zgarishi va axloqiy qadriyatlarning qayta baholanishi sharoitida adolat va muhabbatning ilmiy-falsafiy mohiyatini milliy ma'naviy meros asosida qayta ko'rib chiqish talab etiladi. Boburning falsafiy-axloqiy qarashlari bu jarayonda qadriyatlar barqarorligini ta'minlovchi, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatning ma'naviy negizini belgilab beruvchi muhim manba sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Zahiriddin Muhammad Bobur merosi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda asosiy e'tibor uning siyosiy-tarixiy faoliyati, badiiy ijodi va davriy manzaralarni aks ettirgan "Boburnoma" asariga qaratilgan. Adabiyotlarda Boburning davlat boshqaruvi haqidagi fikrlari ko'proq amaliy siyosiy tajriba sifatida talqin qilinsa-da, so'nggi yillarda uning ma'naviy-falsafiy qarashlarini, xususan, adolat va muhabbat kabi asosiy axloqiy kategoriyalarni qayta o'rganishga oid tadqiqotlar kengayib bormoqda.

Muhabbat masalasiga doir tadqiqotlar Boburning badiiy merosi bilan bog'liq holda ko'proq tahlil qilingan. Adabiyotlarda muhabbatning badiiy-estetik ifodasi, insonning ruhiy olamini tarbiyalovchi ma'naviy kuch sifatidagi talqiniga e'tibor qaratilgan. Ammo so'nggi tadqiqotlarda muhabbat Bobur falsafasida jamiyatni birlashtiruvchi ijtimoiy tartib mezon, inson va Vatan o'rtasidagi ma'naviy birlikni ta'minlovchi konseptual kategoriya sifatida talqin qilinayotgani qayd etiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda Boburning adolat va muhabbatga oid qarashlari universal axloqiy qadriyatlar tizimida o'rganilib, ularning davlatchilik madaniyati, shaxs ma'naviyati va ijtimoiy munosabatlar tizimidagi falsafiy-amaliy ahamiyati keng yoritilmoqda. Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Boburning ma'naviy merosi hali to'liq ochib berilmagan falsafiy qirralarga ega bo'lib, uning ijtimoiy-axloqiy mezonlari zamonaviy ma'naviy tahlil uchun muhim nazariy asos beradi.

Metod va metodologiya. Ushbu tadqiqotda Bobur falsafiy merosida adolat va muhabbatning ijtimoiy-axloqiy mezon sifatidagi mohiyatini ochib berish maqsadida qiyosiy-falsafiy, tarixiy-mantiqiy va kontent tahlil metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy-falsafiy metod Bobur qarashlarini Sharq siyosiy-axloqiy tafakkuridagi umumiy an'analar bilan solishtirishga, shu orqali uning fikrlarining nazariy asoslarini aniqlashga yordam berdi. Tarixiy-mantiqiy yondashuv Bobur asarlarida aks etgan adolat va muhabbat konsepsiyalarining taraqqiyot manzarasini ochish, ularning shakllanish omillarini izohlash imkonini berdi. Kontent tahlil usuli esa, "Boburnoma" va shoirning badiiy merosidagi axloqiy kategoriyalarning mazmun tuzilishini, ularning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatini aniqlashda qo'llanildi. Shu bilan birga, ijtimoiy-falsafiy talqin metodi orqali adolat va muhabbatning inson ongi, jamiyat barqarorligi va ma'naviy tartibdagi funksiyalari tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi integrativ xarakterga ega bo'lib, tarixiy meros, axloqiy falsafa va qadriyatshunoslik asosida Bobur qarashlarini yangi ilmiy kontekstda talqin qilishni nazarda tutadi.

Muhokama. Aksiologiya qadriyatlar haqidagi ta'limot sifatida falsafaning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning ildizlari qadimgi yunon faylasuflari Sokrat, Arastu va Platonning "yaxshilik" va "adolat" haqidagi qarashlariga borib taqaladi. Platon "Davlat" asarida adolatni shaxs va jamiyat o'rtasidagi muvozanat deb ta'riflasa, Arastu uni "o'lchov va tenglikni saqlovchi axloqiy fazilat" sifatida talqin qilgan [3].

Sharq falsafasi tarixida esa, bu g'oyalar Farobiy, Ibn Sino va Imom G'azzoliy tomonidan ijtimoiy-axloqiy tizim darajasiga ko'tarilgan. Farobiy "Fozil shahar ahli haqida kitob" asarida adolatni fozil jamiyatni barpo etuvchi asosiy tamoyil deb talqin qilgan [2].

Adolat insoniyat ma'naviy tafakkurining markaziy kategoriyalaridan biri bo'lib, u qadimgi jamiyatlardan to zamonaviy demokratik tizimlargaacha insonning axloqiy, huquqiy va siyosiy hayotida asosiy rol o'ynaydi. Falsafiy nuqtayi nazardan adolat nafaqat huquqiy mezon, balki ontologik va axloqiy qonun sifatida namoyon bo'ladi.

G'arb aksiologiyasida qadriyatlar muammosi Arastu, Kant va Sheller ta'limotlarida mukammal falsafiy ifodaga ega bo'lgan. Ular insonning haqiqiy qiymatini axloqiy me'yorlarga rioya etish va aqlga muvofiq hayot kechirishda deb bilganlar. Arastu adolatni "jamiyatda tenglik va o'lchovni saqlovchi axloqiy fazilat" deb ta'riflagan. Immanuel Kant esa, "Kritika prakticheskogo razuma" asarida insonni axloqiy qonunning maqsadi va subyeksi sifatida izohlaydi [9].

Islom falsafasi va kalomida adolat (al-'adl) Allohning sifatlaridan biri sifatida qoraladi. U insonning axloqiy va ijtimoiy faoliyatidagi ilohiy me'yor hisoblanadi. Abu Nasr Farobiy "Fozil shahar ahli haqida" asarida adolatni fozil jamiyatning markaziy tamoyili sifatida izohlab, shunday yozadi: "Adolatsiz shahar – ma'naviy tanazzulga mahkum jamiyatdir". Ibn Sino va Nosiriddin Tusiy ham adolatni nafaqat siyosiy, balki axloqiy kamolotning asosiy belgisi sifatida talqin qilganlar. Tusiyning "Axloq-i Nosiriy" asarida adolat – "quvvatlar o'rtasidagi miqdoriy muvozanat" sifatida ta'riflanadi.

Zahiriddin Muhammad Boburda bu g'oyalar so'fiy ruh bilan boyitilgan holda, insonning ma'naviy erkinligi va mas'uliyati birligida ifoda etilgan. Agar Kant axloqni ratsional qonunga bog'lagan bo'lsa, Bobur uni muhabbat va rahm orqali jonlantirgan. Shu bois, u Sharq irfoni va G'arb ratsionalizmi sintezi asosidagi falsafiy yondashuv yaratdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ana shu an'analarni meros qilib olib, ularni amaliy hokimlik tajribasi bilan uyg'unlashtirdi. Uning falsafasida "adolat" va "muhabbat" nafaqat axloqiy, balki aksiologik mezon sifatida, ya'ni inson va jamiyat hayotini baholashning chuqur ma'naviy o'lchovi sifatida namoyon bo'ladi [1]. Bobur nazariyasida adolat — davlat, shaxs va ilohiy iroda o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlovchi qonunning ma'naviy asosidir. U Farobiy ta'limotidagi "aqlga asoslangan adolat"ni "insonparvar va ruhiy adolat" darajasiga olib chiqdi. "Boburnoma"da u shunday yozadi: "Haq adolat bilan bo'lur, zulm bilan davlat davom qilmas" [8]. Bu fikr, Aristotelning "zulm davlatning zaifligidan, adolat uning barqarorligidan dalolat" degan g'oyasi bilan ma'nan hamohangdir. Shuningdek, bu ibora Boburning hokimiyat va axloq birligi haqidagi falsafiy qarashining yuksak ifodasidir. Mutafakkir bu g'oyani "Haq" tushunchasi bilan bog'laydi. Uning fikricha, haq ilohiy adolatning mezoni, unga zid harakat esa, davlatning halokati sababidir. Shu ma'noda u Farobiyning "fozil shahar" nazariyasi va Imom G'azzoliyning "odil podshoh" ideali xususidagi fikrlariga hamohangdir. Demak, Boburda adolat nafaqat siyosiy

vazifa, balki axloqiy burchdir. Uning nazarida podshoh adolatli bo'lmasa, muhabbatga ham haqli bo'lmaydi.

Adolat tushunchasining falsafiy talqini shundan dalolat beradiki, u inson va jamiyat hayotining ontologik, axloqiy va siyosiy asosidir. Platon va Aristotelda adolat tartib va muvozanat mezon bo'lsa, islom falsafasida u ilohiy haqiqat va inson mas'uliyatini izohlaydi. Mirzo Bobur qarashlarida esa, axloqiy davlatchilik tamoyilini belgilaydi. Shuning uchun ham adolat kategoriyasi faqat huquqiy emas, balki ma'naviy-falsafiy mezon, inson va davlat o'rtasidagi axloqiy hamjihatlik asosidir.

Ta'kidlab o'tilganidek, "Boburnoma"da adolat nafaqat siyosiy vosita, balki axloqiy mas'uliyat sifatida talqin etiladi. Bobur podshohlik mas'uliyati va adolat tamoyilini quyidagicha ta'riflaydi: "Podshohning vazifasi xalqni himoya qilmoq, ularning ahvolidan xabardor bo'lmoq va zulmni yo'qotmoqdir" [5]. Shuningdek, u podshohning adolati davlat barqarorligining asosi ekanini ta'kidlab shunday yozadi: "Podshohlikdin maqsad xalq roziligidir, Xalq rozi bo'lmasa, taxtning ne foydasi?" [6]. Bu fikrlardan ko'rinib turibdiki, Bobur uchun adolat faqat shaxsiy fazilat emas, balki davlat barqarorligining ma'naviy poydevoridir. Shu jihatdan, Bobur falsafasida adolat "huquqiy qonun"dan yuqori turib, inson va davlat o'rtasidagi ma'naviy shartnoma sifatida namoyon bo'ladi. Bu fikr falsafiy jihatdan Arastu va Farobiyning adolat nazariyasi bilan uyg'unidir, ya'ni inson va jamiyatning saodati adolatli boshqaruv va insofli munosabatlarga bog'liq. Yangi O'zbekistonda yoshlar tarbiyasida adolat g'oyasi, birinchidan, qonunga hurmat, vijdon va mas'uliyat hissini shakllantiradi; ikkinchidan, "Inson qadri uchun" tamoyilini amaliy hayotda anglashga yordam beradi; uchinchidan, yoshlarda jamiyat manfaatini shaxsiy nafdan ustun qo'yish madaniyatini tarbiyalaydi.

Bobur "Devon"ida shunday yozadi: "Ishq ahli dilni nur ila ravshan aylagay, Nursiz dil — g'ofillikda, torlikda qolg'ay". Bu fikr irfoniyl falsafadagi "ishq-ilohiy nur" g'oyasini anglatadi. Mutafakkir fikricha, muhabbat insonni nafs va moddiy manfaatdan xalos etib, ma'naviy yetuklik sari yetaklaydi. Shu jihatdan muhabbat Boburda faqat hissiy holat emas, balki axloqiy-aksiologik prinsipdir. Buning ma'nosi shundaki, u insonni ezgulikka, boshqalarga xizmat qilishga va yurtga sadoqatli bo'lishga chorlaydi.

Muhabbat Bobur falsafasida faqat hissiy holat emas, balki ilohiy nurning inson qalbidagi in'ikosi sifatida talqin etiladi. Uningcha, muhabbatsiz inson hayoti ruhiy nochorlikka aylanadi, chunki muhabbat insonni yaratuvchi kuch, ya'ni haqiqatga yetaklovchi nurdir. Bu fikr irfoniyl falsafadagi Rumiy va Navoiy an'analari bilan uyg'unidir. Jumladan, Jaloliddin Rumiy "Muhabbat ruhning nafasi, undan mahrum bo'lmoq o'limdir" [11] deb ta'kidlagan bo'lsa, Alisher Navoiy "Muhabbatsiz dilda hayot yo'q, muhabbat — ilohiy nurdir" [10] deya ta'riflaydi. Bobur bu

g'oyalarni amaliy hayot bilan bog'lab, ishq va muhabbatni insonparvarlik, adolat va insofning ma'naviy manbai deb ta'kidlaydi. "Boburnoma"dagi juda ko'p sahifalarda muhabbat, rahm va insof hayot me'yori sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, ayniqsa, Hindiston davri voqealarida Bobur podshohlik burchini xalq xizmati bilan bog'lab, shunday fikr bildiradi: "Podshoh xalqning otasidir. Uning vazifasi xalqni zulmdan saqlab, ezgulikka boshlashdir. Adolat bilan ish tutgan podshohning davlati baqodur bo'lur". Boburning bu fikri uning falsafiy-axloqiy tizimida adolat va muhabbat mezonlarining amaliyotdagi ko'rinishidir. Uningcha, podshohning haqiqiy qudrati xalq roziligida, hokimlikning ma'naviy ma'nosi adolatni qaror toptirishda, rahbarning faxri xalq farovonligini ta'minlashdadir. Mutafakkir podshohlikni ilohiy burch sifatida izohlaydi. Shuning uchun u "Podshohlik ne'matdur, lekin har ne'matning shukri bor, podshohlikning shukri adolat va xalq ahvolidan xabardor bo'lmoqdur" [5] deb yozadi. Bunda u hokimiyatni Alloh tomonidan berilgan ne'mat sifatida ko'radi, ammo bu ne'matning og'ir yuki mas'uliyat va adolat deb ta'kidlaydi. Bu fikrlar Farobiyning "fozil shahar" nazariyasiga hamohangdir. Unga ko'ra, podshohning asosiy vazifasi xalqni ma'rifat, ezgulik va tinchlik sari yetaklashdir. Boburda esa, bu g'oya faqat nazariy emas, balki amaliy davlat boshqaruvi qoidasi sifatida ifoda topgan.

Muhabbat g'oyasi Bobur falsafasida inson va jamiyat munosabatlarining markaziy nuqtasi sifatida izohlanadi. U nafaqat hissiy va diniy mohiyatga, balki falsafiy, ijtimoiy va axloqiy mazmunga ega. Muhabbat orqali inson nafs ustidan g'alaba qozonib, insoniy qadriyatlarga yetishadi, jamiyat esa, mehr va adolat asosida barqarorlik topadi.

Shuning uchun Bobur falsafasida muhabbat "insonparvar aksiologiya"ning ruhiy yadrosi bo'lib, u Sharq tafakkuridagi irfoniy an'analarni yangi ma'naviy bosqichga ko'taradi.

Muhabbat kategoriyasining falsafiy mohiyati inson va olam munosabatlarining markaziy nuqtasi hisoblanadi. U ontologik jihatdan mavjudotni birlashtiruvchi ilohiy kuch, gnoseologik jihatdan bilishning ichki yo'li, axloq jihatdan insonning ma'naviy kamolotini ta'minlovchi asosiy qadriyatdir. Bobur falsafasida muhabbat bu uch qirrani uyg'unlashtirib, ilohiy, ma'naviy va ijtimoiy birlik g'oyasini ifoda etadi. Shu ma'noda, muhabbat inson va jamiyat ma'naviy barqarorligining universal asosidir. Boburda muhabbat bu hissiy yoki shaxsiy tuyg'u emas, balki ontologik va ma'naviy kategoriyadir. Uning nazaricha, muhabbat olamdagi barcha narsalarni birlashtiruvchi ilohiy quvvat hisoblanadi. Bu fikr Ibn Arabiy, Jaloliddin Rumiy va Ahmad Yassaviyning tasavvufiy ta'limotlaridagi "muhabbat ilohiy haqiqatning zohir bo'lishi" g'oyalari bilan uyg'unidir. Bobur falsafasida "muhabbat" tushunchasi uch darajada ifoda etilgan:

1. Ilohiy muhabbat — Yaratganga bo'lgan sidqidil bog'lanish;
2. Insonparvar muhabbat — boshqalarga mehr va rahm-shafqat bilan munosabatda bo'lish;

3. Vatanga muhabbat — insonning ma'naviy mas'uliyati va hayot mohiyati sifatida.

Boburning muhabbat haqidagi g'azallaridan birida shunday ma'noga ega misralar bor: "Kimki ishq ahlini bilmas, jon halovatidan bexabar,

Kimki ishqni tatimagan, u haqiqiy inson emas" [6]. Mazkur misralar orqali Bobur ishqni faqat hissiyot emas, insonni komillikka yetaklovchi ma'naviy kuch sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, muhabbat insoniylikning nuri, qalb pokligining mezonidir.

Yangi O'zbekiston sharoitida mazkur g'oya yoshlarda milliy va insoniy muhabbatni uyg'unlashtirib, vatanparvarlik hissini mustahkamlaydi. Shuningdek, yoshlar orasida bag'rikenglik, hamjihatlik va rahmdillik kabi umuminsoniy fazilatlarni rivojlantiradi. Axloqiy falsafa nuqtayi nazaridan, insonni "muhabbat orqali inson bo'lish" g'oyasiga yetaklaydi.

Bobur falsafasida adolat va muhabbat dialektik birlikni tashkil etadi: biri me'yoriy (deontologik), ikkinchisi ruhiy-ma'naviy (teologik) mezondir. Adolat bu tizim, muhabbat bu mazmun. Shuning uchun ham Mirzo Bobur "adolatsiz muhabbat — zaiflik, muhabbatsiz adolat — zulm" degan falsafiy xulosaga keladi. Tadqiqot nuqtayi nazaridan ta'kidlaganda, Bobur falsafasida adolat va muhabbatning birligi insonparvarlik falsafasining uzviy tamoyilidir. "Boburnoma"da Bobur podshohlik va insonparvarlikni birlashtiruvchi ikki qadriyat, ya'ni adolat va muhabbat o'rtasidagi mutanosiblikni doim ta'kidlaydi. Uningcha, adolat muhabbatsiz bo'lsa, zolimlikka aylanadi, muhabbat adolatsiz bo'lsa, zaiflikka olib keladi. Bu fikr quyidagi misra va iboralarda o'z ifodasini topgan: "Podshohning burchi xalqni himoya qilmoq, ularni ezgu ishlarga boshlamoq va adolatni qaror toptirmoqdir". Bu yerda adolatni muhabbat bilan bog'lash g'oyasi quyidagicha izohlanadi: xalqni sevmok va ular uchun ezgulik qilish hissi — haqiqiy adolatning mohiyatidir. Boburning fikricha, hukmdor faqat qonun bilan emas, ruhiy muhabbat va insof bilan boshqarishi lozim. Bu qarash G'azzoliyning "ixtiyor va niyat" haqidagi axloqiy ta'limoti bilan ham uyg'un bo'lib, keyinchalik islom falsafasidagi insonparvarlik g'oyalariga zamin yaratgan [7].

Boburning mazkur fikridan shunday xulosa qilish mumkinki, Boburda adolat inson va hokimiyat munosabatlaridagi axloqiy muvozanat mezoni bo'lib xizmat qiladi. Adolatsiz muhabbat jamiyatda zaiflik, muhabbatsiz adolat zolimlik keltirib chiqaradi. Shu jihatdan, adolat Bobur falsafasida inson va davlatning ma'naviy qiyofasini belgilaydigan qiymatdir. Bundan xulosa shuki, Bobur falsafasida aksiologik mutanosiblik quyidagi qonuniyat asosida qurilgan: "Adolat jamiyat barqarorligining zohiriy mezoni, muhabbat uning botiniy ruhidir". Bu uyg'unlik Bobur falsafasini nafaqat axloqiy, balki ijtimoiy-falsafiy tizim sifatida ham belgilaydi. U insonning tashqi va ichki hayotidagi qiymatlar iyerarxiyasini yaratadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning falsafiy qarashlarida adolat va muhabbat kategoriyalarini bir vaqtning o'zida axloqiy va ontologik qadriyatlar sifatida tahlil qilish falsafa tarixida yangi yondashuvni tashkil etadi.

Bobur muhabbat va adolatni insonning ma'naviy dunyosi va ijtimoiy hayotining asosiy ikki qanoti sifatida ko'radi. Muhabbat insonni inson qiladi, adolat insonning jamiyatdagi haqiqiy qadrini belgilaydi. Bu uyg'unlik orqali Bobur Sharq falsafasiga xos ma'naviy ideal komil inson timsolini ilgari suradi. Uningcha, podshoh ham, faqir ham muhabbat va adolat mezonlariga tayana olsagina, insof va haqiqat yo'lida bo'ladi.

Bu g'oya Yangi O'zbekiston yoshlar siyosatida muhim o'rin tutadi. Chunki adolat yoshlarni fuqarolik mas'uliyatiga o'rgatadi, muhabbat esa, ularni insonparvar va bag'rikeng ruhda tarbiyalaydi. Natijada jamiyatda falsafiy jihatdan "qonun va vijdon uyg'unligi"ga asoslangan ma'naviy muhit shakllanadi.

Bobur falsafasining aksiologik modelida adolat va muhabbat — ikki qutbli qiymat bo'lib, ular insonni ma'naviy kamolotga, jamiyatni esa, barqarorlikka yetaklaydi. Shuning uchun ham Bobur merosi bugungi zamonaviy insonparvarlik falsafasi uchun ham dolzarb ahamiyatga ega, ya'ni adolat insonni jamiyatda haqqoniy qiladi, muhabbat esa, uni ruhan yuksaltiradi.

Ta'kidlash joizki, Bobur falsafasi zamonaviy aksiologiyada insonparvar va ma'naviy yondashuvning ilk sharqona modelidir. Uning fikricha, har bir ijtimoiy va siyosiy munosabat muhabbat va adolat asosida qurilsa, inson ozod va ma'naviy barkamol bo'ladi. Bu g'oya Kantning "axloqiy qonun ichidagi inson qadri" konsepsiyasi bilan uyg'un, biroq Boburda u ilohiy ruh va so'fiy tajriba bilan boyitilgan. Shu jihatdan, Boburning aksiologiyasi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki XXI asrdagi ma'naviy inqiroz va ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etishda universal falsafiy ahamiyat kasb etadi.

Bobur aksiologik mezonlar tizimida o'z davrining gumanist faylasufi sifatida alohida o'rin tutadi. U adolat va muhabbat orqali inson qadrini yuksaltirishni falsafiy va siyosiy burch sifatida belgiladi. Shuning uchun ham Bobur falsafasi ma'naviyat, siyosat va axloq uyg'unligini ta'minlagan Sharq aksiologiyasining amaliy namunasi sifatida baholanadi.

Adolat va muhabbat Bobur falsafasida nafaqat axloqiy fazilatlar, balki inson va jamiyatni baholashning universal aksiologik mezonlaridir. Ular faqat nazariy kategoriyalar emas, balki amaliy hayot qonunlariga aylangan qadriyatlar tizimini tashkil etadi. Bu g'oyalar zamonaviy falsafiy aksiologiya va madaniy siyosatda ham insonparvarlik va ma'naviyatning asosiy ustuni bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat davlat arbobi va shoir, balki insoniyatni ezgulikka, ma'rifatga va adolatga chorlagan komil shaxs sifatida insoniy tafakkur tarixida

o'chmas iz qoldirgan. "Yangi O'zbekiston" g'oyasi esa, fuqarolik jamiyati qurish, inson qadrini ulug'lash va yosh avlodni ma'naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalash tamoyillariga asoslanadi. Shu jihatdan Boburning adolat va muhabbat g'oyalari bugungi taraqqiyot strategiyasida falsafiy-ma'naviy ustunlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Boburning adolat va muhabbat g'oyalari Yangi O'zbekistondagi yoshlar tarbiyasining falsafiy asosi sifatida:

- insoniy qadriyatlarning ulug'lanishiga;
- ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazishga;
- hamjihat, adolatli va muhabbatli jamiyat qurishga xizmat qiladi.

Falsafiy nuqtayi nazardan, bu g'oyalar "komil inson" idealini amaliy hayotda ro'yobga chiqarish uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lal R. The Philosophy of Babur: Moral and Political Dimensions. — Delhi: Aryan Press, 1998. 25 p.
2. Абу Наср Форобий. Фозил шаҳар аҳли ҳақида китоб. — Тошкент: Фан, 1983. — Б.112.
3. Аристотель. Никомахова этика / Пер. с древнегреч. и комм. А. И. Доватура. — М.: Мысль, 1984. — 472 с.
4. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. "Бобурнома". — Тошкент: Фан, 1989. 372 б.
5. Бобур. Бобурнома / Тарж. ва изоҳлар билан. — Тошкент: Фан, 1989. Б. 184.
6. Бобур. Девон. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. —Б.47
7. Ғаззолий Абу Ҳомид. Ният ва ихтиёр ҳақида. — Т.: Ислом цивилизацияси маркази, 2001. — 84 б.
8. З.М. Бобур. Бобурнома. — Тошкент: Фан, 1960. — 211–212–бетлар.
9. Кант И. Критика практического разума. — Москва: Мысль, 1994. —211 с.
10. Навоий А. Маҳбуб ул-қулуб. — Тошкент: Фан, 1968. — 59-б.
11. Румий Ж. Маснавийи маънавий. — Техрон: Нешр-э Суфий, 1981. — 212-б.